

## **MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGI BO‘YICHA KIRISH FANLAR BO‘YICHA SAVOLLAR**

### **A) Raqs ijrochilik mahorati**

Abituriyent mazkur turda o‘zbek va jahon xoreografiya san’atiga oid raqs namunalaridan birini ijro etib beradi. Masalan: P.I.Chaykovskiyning “Oqqush ko‘li” “Uyqudagi go‘zal”, “Shelkunchik” baletlaridan bitta variatsiya ijro etib beradi. Shuningdek M.Turg‘unboyevaning qoldirgan ijodiy merosi turkumidan biror raqs asarini ijro etib beradi.

Shu bilan birga abituriyent **Ispaniya, Italiya, Vengriya, Polsha, Rus xalq-sahna raqslaridan** namunalar namoyish etadi.

### **B) Baletmeysterlik mahorati tahlili**

Abituriyent mazkur turda oldindan tayyorlab kelgan raqs librettosini baletmeysterlik nuqtai nazaridan tahlilini himoya qiladi. Jumladan:

1. Dramaturgiya qoidalari.
2. Musiqa to‘g‘ri tanlanganligi.
3. Raqs ijro shakllari.
4. Xoreografik nutqi (leksika.)
5. Raqsning mazmundorligi.
6. Raqsning g‘oyasi.

### **V) Pedagogik mahorat**

Abituriyent o‘zi tanlagan biror raqs asarining pedagogik rejasini yozma holda topshirib uni himoya qiladi. Pedagogik rejada quyidagilarni bayon qilib berishi shart:

1. Ijodiy pedagogika qoidalarini bilishi
2. Xoreografiya san’atining nazariyasi va tarixini bilishi
3. Harakatlarni ijro etish davrida qilingan xato-kamchiliklarni mantiqan asoslab berishi
4. Raqsning alohida kombinatsiya va fragmentlarini to‘g‘ri sintez qila bilishi
5. Interaktiv uslublarni mashg‘ulotlar jarayonida qo‘llay bilishi

### ***Raqs amaliyotida ijrochilik mahoratining texnikasi va uslubiyoti.***

Fanning maqsad va vazifalari: Xoreografiya Oliy maktabida o‘qitish jarayonining xususiyatlari, bolaning kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish – ijrochilik mahoratini shakllanishining tezkor rivojlanish garovi.

Xoreograf ijrochining kasbiy mahoratini aniqlash mezonlari. Raqs ijro madaniyatining tushunchalari va tamoyillari. Raqs harakatlari ijrosi uslubiyotini o‘rganish yordamida kasbiy ijro mahoratini shakllantirish.

**O'quv jarayonida gimnastika** – ijro texnikasini rivojlantirish metodikasi. Turli xalqlarning raqs maktablari va uslublarini o'zlashtirish orqali ijro texnikasini takomillashtirish.

Xoreografiyada musiqaning ahamiyati.

### ***Raqs kompozitsiyasi rejissurasi va xoreografiya dramaturgiyasi***

Zamonaviy xoreorejissurasining rivojlanish tendensiyalari va muammolari.

Raqs kompozitsiyasida mavzu, obraz, musiqa, leksika, raqs shakli, leytmotiv. Rakurs. Yakkaxon raqs, duet, ommaviy raqs. Syuita. Raqs – musiqa frazasi. Mizanssenaning yechimi. Raqs rejissurasi va dramaturgiya qonunlari. Boyitish uslublari.

Harakatlanish vazifalari va xoreografiyada uning komponentlari. K.S. Stanislavskiyning jismoniy harakatlar uslubi va uni xoreografiyada qo'llanilishi. Harakat va ziddiyat. Obraz ustida ishlash bosqichlari. Rolning asosiy mag'zini aniqlash. Bir nechta xoreografiya spektaklini og'zaki tahlili (quyidagi reja asosida):

Mavzu, muammo, g'oya, ziddiyat, yuqori vazifalar, uzviy harakat va boshqalar.

Spektaklni bezash tamoyillari (ssenografiya, mezanstena, yorug'lik, plastik musiqa va boshqa bezashlarning tamoyillari).

### ***Sahna amaliyotida folklor raqs an'analarini qayta shakllantirish muammolari***

Milliy madaniyatning an'analariga asrab-avaylash munosabati. Milliy harakterning ahloqiy va etik asoslarni tiklash. An'anaviy madaniyatning nazariy qimmatini asoslarini shakllantirish. Milliy madaniyat an'alarida shaxsni tarbiyalash usullari.

O'zbek xalqi milliy an'analarini tiklash va saqlash yo'nalishida madaniyat muassasalarining ijtimoiy-madaniy faoliyati.

Bayram, konsert va festivallarda folklor raqsi. Bayramlar yordamida xalqlarning an'analarini tiklash. O'zbek xalqining o'tmishdagi va hozirgi vaqtagi milliy xususiyatlari. O'zbek xalqi raqs folklorining zamonaviy holati. Etnografik va folklor materiallarini yig'ish va analizining uslubiy asoslari. O'zbek folklori raqs shakllarining an'analari. Xorazm folklor raqsi, Buxoro folklor raqsi, Farg'ona folklor raqsi, Uyg'ur folklor raqsi, Surxondaryo folklor raqsi.

### ***Xoreografiya jamoalari rahbarining ijodiy faoliyati uslubiyoti***

Havaskorlik xoreografiya jamoasida ta'lim, tarbiya va ijodiy jarayonni tashkil etishning xususiyatlari. Xoreografiya jamoasida o'qitish uslubi, shakli va prinsiplari. Jamoaning masalalari va ijodiy yo'nalishidan kelib chiqqan holda darslarni tashkil etish xususiyatlari. Raqs repertuarini shakllantirish asosida jamoaning rivojlantirish dasturi.

Ijodiy loyihalarni va maqsadli dasturlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish. Ijodiy jamoaning repertuarida milliy raqs san'atning oltin

meroslari. Badiiy – tarbiyaviy va sahnalashtirish ishlarida mahalliy raqs folklorining imkoniyatlari.

Sahnalashtirish - repetitorlik ishning uslubiyati. Xoreografiyada sahnalashtirishni badiiy bezash. Jamoa ishtirokchilarini musiqiy tarbiyalash.

### ***Raqs jamoalarning ishlarini tashkil etish va rejalashtirish.***

Xoreografiya jamoalarining maqsad va vasifalari, sinflarga bo‘linish strukturasi. Jamoani yaratish bo‘yicha tashkiliy ishlar. Jamoa faoliyatini yuritish bo‘yicha material-texnik va huquqiy-meyoriy sharoitlar. Xoreografiya jamoasi rahbarining faoliyat aspektlari. Ta’lim jarayonini psixolog-pedagogik va uslubiy ta’minlash bo‘yicha tashkiliy ishlar. Jamoa faoliyatini tizimli rejalashtirishni ta’minlash.

Xoreografiya jamoasi dasturini ishlab chiqishda va ishini tashkil etishda shaxsning yoshini hisobga olish.

Xoreografiya jamoalarda o‘quv-tarbiyaviy ishlar. Xoreografiya jamoalarining ijtimoiy-pedagogik va badiiy-ijodiy funksiyalari. Badiiy xoreografiya jamoalarining faoliyati orqali o‘spirinlarni mutaxassislikka yo‘naltirish.

### **Magistr pedagog-xoreograf**

#### **Pedagogik amaliyotda repetitorlik.**

Artistlar uchun mumtoz, xalq-sahna, o‘zbek raqs darslari mazmun mohiyatining xususiyatlari; zamonaviy sahnalar va mumtoz meros namunalari, xoreografiya matnlari; umumiy va shaxsiy tanbeh, ijro etish uslubi, stil.

***Repetitsiyalarni o‘tkazishning amaliy tajribalari:*** umumiydan alohidaga va orqaga; kordebalet, kichik ansambl solistlarining stil va harakatlar ijrosining tozaligi, raqs shakllari, matnni qayta ishlash; kerakli natijaga erishish maqsadida ijro nuqsonlarini ko‘ra bilish va ularni tuzatish.

#### **Raqs kompozitsiyasi.**

Raqsning kompozitsiyasi: mavzu, obraz, musiqa, leksika, raqs shakli, lytmotiv. Rakurs, yakkaxon raqs, duet, ommaviy raqs, syuita. Raqs, musiqiy fraza. Mizanssenaning yechimi. Dramaturgiya qonunlari va raqs rejissurasi.

Harakatlanish vazifalari va xoreografiyada uning komponentlari. K.S. Stanislavskiyning jismoniy harakatlar uslubi va xoreografiyada qo‘llanilishi. Harakat va ziddiyat. Obraz ustida ishlash bosqichlari. Rolning asosiy mag‘zini aniqlash. Bir nechta xoreografiya spektaklining og‘zaki tahlili (quyidagi reja asosida):

Mavzu, muammo, g‘oya, ziddiyat, yuqori vazifalar, uzviy harakat va boshqalar.

Spektaklni bezash tamoyillari (ssenografiya, mezanstena, yorug‘lik, plastik musiqa va boshqa bezashlarning tamoyillari).

Zamonaviy mavzu va uni hayotga tadbiiq etish vositalari. Xoreografiyada aktyor shtamlari bilan kurashish. Xoreografiyani zamonaviy yoritib berish

vositalari. Zamonaviy mavzuni milliy raqs, xalq-raqsi, mumtoz raqs vositalari bilan yechimi.

### ***Balet pedagogikasining metodologiyasi.***

Metodologiya – bu faoliyatni tashkil etish usuli. O‘quv-faoliyatining uslubiyati. Xoreograf mutaxassislik faoliyatining uslubiyoti. Badiiy faoliyatning uslubiyoti. Balet pedagogikasining nazariyasi. Badiiy faoliyat tushunchasi. Badiiy faoliyatning maxsus xususiyatlari. Badiiy faoliyatning estetik tabiyati. Maqsadni tanlash erkinligi. Badiiy faoliyatning prinsiplari, vositalari, uslublari, shakllari. Badiiy faoliyatning tashkiliy jarayoni. Badiiy faoliyatning obyekt va predmeti. Xoreografiya ta’limida loyiha uslubi badiiy faoliyatning mahsuli sifatida. Muammoning qo‘yilishi, qarama-qarshiliklar, aniqlash, badiiy asar va badiiy obraz.

Yosh mutaxassislikning xususiyatlari. Xoreografiya o‘quv muassasasida pedagogik jarayon. O‘quv jarayonni tashkil etishning umumiy shakllari. Pedagogik jarayonni boshqarish usullari, qabuli va tashkil etish vositalari. A.Y.Vaganova pedagogik tizimining ilmiy asoslari. Mutaxassis balet o‘quv muassasasida o‘quv jarayonini tashkil etish, umumiy ta’lim va balet artistlarni tarbiyalash.

### ***Xoreografiya pedagogikasini o‘qitishda analitik uslub.***

Badiiy analizning asoslari. Badiiy ko‘rish va badiiy **ta’mini** rivojlantirish. Xoreografiya asari badiiy analizning algoritmi. Analiz va sintez – bir-birini to‘ldiruvchi fikrlash uslublari. Badiiy fikrlashni rivojlanish qonuniyatlari. Xoreografiya fanlarining o‘qitish uslubiyati. Darsning tuzilishi. Bir-biri bilan bog‘liq musiqa va xoreografiya vositalarini yoritib berish xususiyatlari. Xoreografiya o‘quv jarayonida musiqaning o‘ziga xosligi.

Talabalarni mustaqil-ijodiy ishlarini baholash mezonlari. Jamoa bilan sahnalashtirish va repetitorlik ish tajribalarning tahlili. Raqs musiqasining tahlili.

Xoreografiya san’atida dramaturgiya qonunlari. Raqs san’atidagi oltin merosi.

### ***Ijro mahoratini takomillashtirishning pedagogik va badiiy texnologiyalari***

Raqs ijro madaniyatining tushuncha va tamoyillari. Raqsning ijro madaniyatiga estetik va texnik talablar. Maxsus qobiliyatlar – ijro mahoratining shakllanishini tezlatuvchi tamoyil.

Xoreografiyaga o‘qitishda vazifa, dasturiy mazmun va uslublar. Xoreografiya ijrochining asoslari: terminlar va terminlarning tushunchalari. Mashg‘ulotlar o‘tkazishning mazmuni va uslublari. Harakatlarni samarali o‘zlashtirishning uslublari, prinsiplari. O‘quv jarayonida gimnastika. Ijrochining musiqiy rivojlanishida ritmika usul sifatida.

Mumtoz meros – balet artistini professional tarbiyalashning asosi, repetitorni, o‘qituvchini. Kordebaletning xoreografik matnlarini o‘rganish va amaliy o‘zlashtirish, kichik ansambl, variatsiyalar, ayol va erkaklarning partiyalari.

Turli xalqlarning raqs maktablari va stillarini o‘zlashtirish asosida ijro texnikasini takomillashtirish.

### **Xoreografiya dramaturgiyasi**

Mumtoz balet repertuari asosiy asarlarining san’atshunoslik tahlili, xoreografiya matni va dramaturgik mazmun bilan tanishish. Romantizm merosi («Silfida», «Jizel» va b.). M.Petipa davri («Don Kixot», «Bayaderka», «Spyashaya krasavitsa», «Lebedinoye ozero», «Raymonda» va b.). A.Gorskiy va M.Fokinning asarlari. K.Goleyzovskiy, F.Lopuxov, L.Yakobsonning ishlari. Xoreodramma ustalarining buyuk asarlari (R.Zaxarov — «Baxchisarayskiy fontan», L.Lavrovskiy — «Romeo va Djulyetta» va b.). Y.Grigorovichning ijodi («Legenda o lyubvi», «Spartak») va 1960-90 yillar xoreograflarning ijodlari.

XX asr chet davlatlari balet teatrlarining buyuk asarlari (Dj.Balanchin, S.Lifar, Dj.Krenko, F.Ashton, K.Makmilan, R.Peti, M.Bejar, Dj.Noymayer va b.). O‘tmish ustalari stil va usullarining o‘ziga xosligi. Mumtoz meros spektakllarni qayta tiklash va tahrirlash muammolari.

***Xoreografiya obrazini rivojlanishida raqs shakli, stil, plastik til usullari. Zamonaviy xoreograflarni individual shaxsiy stili va usuli.***

### ***Fan va san’atning zamonaviy muammolari***

Fan va san’atning o‘zaro muloqot muammolari. Insonning ma’lumotni qabul qilish, psixologiyasiga fan va texnikaning ta’siri. Fan paradigmalari almashuvi – fanning rivojlanish qonuni. Fan va san’atda **haqiqat** muammosi. San’at inson madaniyatining qismi sifatida; badiiy obrazning ko‘pyuzligi. Badiiy obraz, san’at kategoriyasining universalligi. San’at va psixotahlil. San’at ijtimoiy ko‘rinish sifatida; san’at va jamoat (publika); rassom va jamoat; elita va ommaviy san’at.

### **Balet teatrida xoreografning san’ati (baletmeyster-sahnalashtiruvchi)**

Xoreograf san’atining tarixiy va nazariy asoslari. Xoreograf xoreografiyani yaratuvchi va balet spektaklini sahnalashtiruvchi sifatida. Balet teatrining sintetik tabiati. Balet teatrining tasvirlovchi vositalar. Balet teatrida an’anaviy raqs texnikalari (mumtoz, xarakterli, duetli, tarix raqsi) va pantomima. Zamonaviy raqs texnikasi va tasvirlovchi vositalarning turli – tumanligi.

Xoreografning musiqaviy tayyorgarligi, klavir va partituraning baletmeysterlik tahlili. Balet teatriga nisbatan drama nazariyasi va rejissura qonunlari. Balet teatrida sahnaviy dramaturgiya. Baletning musiqaviy dramaturgiyasi. Balet spektaklini badiiy bazash (ssenografiya, kostyum, teatrning zamonaviy texnologiyalari). Turli raqs texnikalari, turli stil va janrlarda, turli

dramaturgik masalalar bilan xoreografiya kompozitsiyalarini yaratish (yaxlit nomerlar, syuita, bir aktli, ko‘p aktli spektakllar).

Xoreografning repetitor hamda ijrochilar bilan ishlashi va hamkorligi. Xoreograf ishida xoreografik notatsiya. Xoreograf jamoasi ishi, spektaklni tashkil etish, boshqarish va rejalashtirish hamda uni sahnaga chiqarish. Sahnalashtirish amaliyoti.

### ***Balet teatrida mumtoz meros va repetitor mahorati***

Rus balet teatrining mumtoz merosi (mumtoz repertuarining asosiy asarlari): kordebalet, kichik ansambl, variatsiyalar, boshlovchi partiyalar — repetitorlik va san’atshunoslik tahlili. Harakterli raqsning merosi.

Mumtoz balet meroslarida duet raqs. Tarixiy – bal raqsi. XX asrning chet el baleti. Zamonaviy raqs; balet teatrida zamonaviy xoreograflarning ishlari. Balet teatrida pantomima. Baletda badiiy obraz yaratishning o‘ziga xosligi. Balet teatrida ijrochilik san’atining tarixi. Repetitorlik ishining uslubiyoti.

Dramaturgiya (ssenariy, musiqiy, xoreografik) repetitor ijrochi bilan ishlash asosi sifatida. Balet spektaklida kostyum va badiiy bezakning mohiyati. Xoreografik matnni fiksatsiyalash uslublari; xoreografiya notatsiyasi. Mumtoz meros spektakllarini qayta tiklash va redaksiyalash muammolari.

### ***Balet san’atida balet teatrining tarixi va tadqiqotlar metodologiyasi.***

Balet teatri va xoreografik san’atning zamonaviy holati va tarixi hamda ularning dolzarb muammolari. Balet ustalarining nazariy merosi. Balet nazariyasi va raqsini qamrab oluvchi muammolar. Zamonaviy raqs san’ati janrlari, ko‘p turli shakllari ichida baletning o‘rni. Zamonaviy san’at va jamoat madaniyatida balet va raqsning o‘rni.

XX asrda vatan va chet el baleti. Balet teatri va raqs san’atining zamonaviy holati: ijodiy yo‘nalishlar, maktablar, rivojlanish tendensiyalari. Balet san’atida san’atshunoslik tarixiy, madaniyatshunoslik, psixologik va boshqa tadqiqotlarning funksiyalari.

Obyekt, predmet, gipoteza va tadqiqot konsepsiyasi. Tushuntirish apparati. Tadqiqotning umumiy mantiq va strukturasi. Tadqiqot usullarini sinflash: optimal kompleksni aniqlash. Ilmiy ma’lumotlarni qayta ishlash va interpretatsiyalash.